

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

3-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>A.I.Tuychiyev</b>	
Uzluksiz ta'lif jarayonida o'quvchilarda intizomlik munosabatini shakllantirish .....	119
<b>R.K.Boyqo'zieva</b>	
Milliy madaniy merosimizni o'rganishda talabalar intellektual madaniyatini rivojlantirishning ijtimoiy jarayonlari .....	122
<b>U.L.Kuchkarov</b>	
5-7 Yoshli gimnastikachilarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish.....	126
<b>N.A.Niyazova</b>	
Smart-jamiyatga o'tish kontekstida ta'lifni axborotlashtirishning zamonaviy ilg'or pedagogik xamkorligi .....	130
<b>S.O'.Boybo'riyeva</b>	
Maktabgacha yoshdagи bolalarda nutq odobini shakllantirish muammolari.....	137
<b>N.S.Qanoatova</b>	
Talabalarning axborot texnologiyalari vositasida mustaqil ta'lif olishining nazariy-pedagogik asoslari .....	141
<b>O.M.Karimov</b>	
O'quvchilarda badiiy-ijodkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik zarurati .....	146
<b>S.A.Qo'chqorov</b>	
Chaqiriqqacha boshlang'ich tayyorgarlik elementlari vositasida talabalarni harbiy xizmatga tayyorlashda vatanga fidoiylik tushunchalarini singdirishning dolzarbligi .....	151
<b>I.A.Imomov</b>	
Zamonaviy yondashuvlar asosida oliy ta'lif jarayonida talabalarda yuzaga keladigan nizolarning pedagogik tahlili .....	156
<b>Sh.Mo'minov, T.Mo'minov</b>	
Notiqlik va vatanparvarlik uyg'unligining lingvokulturopedagogik tadqiqi .....	161
<b>B.X.Baydjanov, N.X.Quziyeva</b>	
Boshlang'ich sinflar o'quvchilarida ijodiy tasavvurni rivojlantirish imkoniyatlari .....	164
<b>D.O'.Yusupova</b>	
Chet tili o'qitishning modellari xaqida.....	168
<b>A.I.Soyibnazarov</b>	
O'quvchilarning ijodkorlik qobiliyatları va ularni rivojlantirishning falsafiy, pedagogik va psixologik asoslari.....	172
<b>A.M.Toshpo'latov</b>	
Yoshlarni xarbiy xizmatga jismonan chidamlilik ruhida tarbiyalash metodikasi .....	177
<b>Sh.X.Azamov</b>	
Zamonaviy ta'lif jarayonida loyihalash faoliyatini tashkil etish .....	183
<b>A.Tadjibaeva</b>	
Ta'lif jarayonidagi inklyuzivlik teng ta'lif olishni ta'minlash omili sifatida .....	187
<b>F.V.Xalilov</b>	
Talabalar mustaqil ta'limininig bugungi holati va uni samarali tashkil etishda didaktik vositalardan foydalanish.....	194
<b>M.M.Kataeva</b>	
Ta'lif jarayonida mobil ta'larning tahlili va tavsiyalar .....	198
<b>E.K.Muxtarov</b>	
Ikki o'lchamli potensial o'rada zarrachaning kvant holatini modellashtirish .....	203
<b>M.M.Tojiboyev, D.S.Yunusova, M.R.Xursantova</b>	
Mustaqil darslarning asosiy shakllari va tashkil etilishi .....	208
<b>U.Sh.Abduraximova</b>	
Bo'lajak tarjimonlarning lingvomadaniy va kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari.....	212
<b>B.X.Baydjanov, Sh.I.Xolmatova</b>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini badiiy asarlarni ifodali o'qishga o'rgatish texnologiyalari .....	220
<b>A.U.G'ofurov</b>	
Bo'lajak jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarining sport turizmiga tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlari .....	224

ZAMONAVIY TA'LIM JARAYONIDA LOYIHALASH FAOLIYATINI TASHKIL ETISH

СОСТАВЛЕНИЕ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРОЕКТИРОВАНИЯ В СФЕРЕ СОВРЕМЕННОГО  
ОБРАЗОВАНИЯ

ORGANIZING DESIGN ACTIVITIES IN EDUCATIONAL PROCESS

Azamov Sherzodjon Xusanboy o'g'li<sup>1</sup>

<sup>1</sup>Azamov Sherzodjon Xusanboy o'g'li

– Chirchiq davlat pedagogika universiteti mustaqil tadqiqotchisi

**Annotatsiya**

Bugungi kunda innovatsiya va islohotlarni ta'lif jarayonida qo'llash zamonaviylik belgisi hisoblanadi. Loyihalash jarayoni innovatsion faoliyat sifatida bir qator afzalliklarga, balki hozirgi ta'lif tizimidagi muammolarga ham egadir. Zamonaviy ta'lifning asosiy funksiyasi o'quvchini ijtimoiy hayotga tayyorlash jarayonida namoyon bo'ladi. Innovatsiya har qanday rivojlanayotgan ijtimoiy tizimga xosdir. Innovatsion hodisa va jarayonlarni anglash, innovatsion siyosatni bilish ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni boshqarish, inqiroz va turg'unlikdan chiqishning eng muhim shartidir.

**Аннотация**

На сегодняшний день использование инноваций и реформ в образовании - знак современности. Процесс проектирования в инновационном деятельности имеет некоторое превосходство, но и проблемы в системе образования. Основная функция современного образования проявляется в подготовке ученика в общественную жизнь. Инновация свойственна каждой развивающейся социальной системе. Понимание инновационных явлений и процессов, знание политической инновации и управление развитием социальной экономики – условия выхода из кризиса и устойчивости.

**Abstract**

Today the use of innovations and reforms in the educational process is a sign of modernity. The design process as an innovative activity has a number of advantages, but also problems in the current education system. The main function of modern education is manifested in the process of preparing the student for social life. Innovation is characteristics of any developing social system. Understanding innovation phenomena and processes, knowledge of innovation policy is the most important condition for socio-economic development process, process and exit from stagnation.

**Kalit so'zlar:** Innovatsiya, pedagogik texnologiya, innovatsion yondashuv, innovatsion faoliyat, loyihalash, kreativlik, ijodkorlik, metod.

**Ключевые слова:** Инновация, педагогические технологии, инновационный подход, инновационная деятельность, проектирование, креативность, изобретательность, метод.

**Key words:** Innovation, pedagogical technology, innovative approach, innovative activity, design, creativity, method.

**KIRISH**

Respublikamizda so'ngi yillarda amalga oshirilayotgan innovatsion ta'lif muassasalarini tashkil etish isloxtotlari jahoning yuksak rivojlangan mamlakatlari qatoridan o'rin egallashimizda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ta'limgagi innovatsiyalar jamiyatning tarixiy taraqqiyoti davrida o'zgarib borayotgan talablarni muvofiqlashtirishga xizmat qilish bilan ahamiyatlidir. Biroq, bu tizimda innovatsion jarayonlarni keltirib chiqaradigan ijtimoiy motivlar bizning davrimizda sezilarli darajada o'zgardi, bu esa maxsus ijtimoiy institut sifatida ta'lifning asoslariga ta'sir ko'rsatadigan innovatsiyalarning rivojlanishiga olib keldi.

Zamonaviy ta'lilda "Innovatsion yondashuv", "Innovatsion faoliyat", "Innovatsion pedagogika" tarzdagi tushunchalarning paydo bo'lishi va ularning maqsadi ta'lif sohasida o'quv-tarbiya jarayoni natijasini kafolatlaydigan o'zgarish, ta'lif jarayoniga yangiliklar kiritishdan iborat [1]. Bunda o'quv jarayonida an'anaviy ta'lif mexanizmidan voz kechishga, ta'lif oluvchilarning tashabbuskorligini rag'batlantirishga qaratilgan axborot texnologiyalaridan foydalangan holda o'zaro hamkorlikda o'rganish imkonini beruvchi, o'quvchini shaxs bo'lib shakllanishiga yordam beradigan loyihalash faoliyatini tatbiq etish shubhasiz samarador ustunlikka egadir. Loyihalash faoliyatida turli ta'lif muassasalari, jamoat va davlat tashkilotlarining hamkorligini nazarda tutuvchi loyihalar asosiy o'rin tutadi. Jahon mamlakatlari o'z taraqqiyot yo'llarini belgilab olishda ta'lif tizimiga jiddiy e'tibor qaratishmoqda. Ta'lif, mamlakat kelajagini ta'minlashdagi ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida davlat siyosatida muhim o'rinni egallamoqda. Barcha ilg'or mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy-

madaniy sohaning rivojini raqobatbardosh kadrlar ta'minlashini inobatga olib, ta'limga o'qitishning zamonaviy va ijodkorlikka asoslangan usullarni joriy etish yo'lidan bormoqda.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Ta'limga tizimiga loyihalash metodining kirib kelishi XIX asrga borib taqaladi, aynan shu davrda AQSHda bu usuldan qishloq xo'jaligi ishchilarini o'qitishda keng foydalanilgan. J.Dui esa XX asr boshlarida loyihalash metodini bolalarining qiziqishlaridan kelib chiqib ularni yo'naltirishga asoslangan pragmatik pedagogika ta'limgotiga tatbiq qilgan.

Ta'limga loyihalash tushunchasi 80-yillarning oxirida faol joriy etila boshlandi va dastlab ta'limga sohasidagi tashkiliy-faoliyatli o'yinlarni ishlab chiqish va o'tkazish jarayonida foydalanildi. Ta'limga loyihalash faoliyatini yanada rivojlantirish Rossiya ta'limga akademiyasining "Pedagogik innovatsiyalar" instituti ishi doirasida amalga oshirildi [2]. Zamonaviy ta'limga asosiy funksiyasi o'quvchini ijtimoiy hayotga tayyorlash jarayonida namoyon bo'ladi. O'quvchini ijtimoiy hayotga tayyorlashning samarali va ilg'or usullardan biri pedagogik loyihalash usuli bo'lib, bugungi kunda ta'limga sifatini oshirishda keng qo'llanilmoqda.

Ushbu maqolada "Pedagogik loyihalash" tushunchasi nazariy va uslubiy tahlil obyekti hisoblanadi. Pedagogik loyihalash mavzusi jahonda I.A. Zagvyazinskiy, Ye.Ya. Zaxarova, Ye.A. Tirkaya, I.A. Podimova, N.V.Kuzmina, O.I.Anisimova va boshqalar tomonidan o'rganilgan. O'zbekistonlik tadqiqotchilardan I.K.Abdirimova, N.A.Muslimov, M.H.Usmonboyeva, D.M.Sayfurov, A.B.To'rayev, J.G'.Yo'ldoshev, S.I.Usmonov tomonidan o'rganilgan.

Innovatsion maktablarda ta'limga sifatini oshirish uchun zamonaviy, barcha talablarga javob beradigan o'quv rejalar asosida variativ o'quv dasturlari tayyorlanishiga erishilmoqda. Zamonaviy maktablar individual o'quv rejasining o'ziga xos xususiyati uning gumanitar va estetik yo'nalishidir. U o'quvchining ijtimoiy, jismoniy, somatik, aqliy, axloqiy, ma'nnaviy salomatligini ta'minlaydigan valeologik faoliyat tamoyillarini amalga oshirishni ta'minlaydi. Tana, ruh va aqlning rivojlanish birligi va uyg'unligi matabning ta'limga siyosati g'oyasi hisoblanadi.

### **NATIJALAR VA MUHOKAMA**

Loyihalash - bu ijodiy faoliyat turi bo'lib, rejalahtirilgan va amalga oshiriladigan hamda bir vaqtning o'zida sintez qilinadigan faoliyat turidir.

1918-yilda Kolumbiya universiteti qoshidagi pedagogika kolleji o'qituvchisi Vilyam Kilpatrick loyihalash metodining mohiyatiga bag'ishlab "Loyihalash metodi" nomli maqola yozadi. Muallifning keyingi maqolalarida ushbu atama quyidagicha talqin qilinadi: "Loyiha" atamasi faoliyatning har bir imkoniyatini, tajriba jarayonining bog'liqligini anglatishi zarur. Bunda maqsad ichki omil sifatida faoliyatning maqsadini anglatadi, tajribaga ega bo'lish jarayonini boshqaradi, shaxsning o'z faoliyatini va ichki qobiliyatini ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi. 1905-yilda rus pedagogi S.T.Shatskiy o'qitish tizimida loyihalash metodini qo'llashga harakat qildi. Keyinchalik, 20-yillarda maktablarda loyihalash metodi asosiy metod sifatida o'quv jarayoniga keng tatbiq qilina boshlandi, biroq 1931-yilda bu metod yordamida umumta'limga fanlarini o'quvchilarga chuqur o'rgatishning to'la imkonini yo'q degan xulosaga kelindi va an'anaviy ta'limga qaytildi. Loyihalash metodi uzluksizlikni ta'minlay olmagani va puxta o'ylanmagan metod sifatida tanqidga uchradi va yaqin davrgacha ta'limga jarayonida qo'llanilmasdan keldi. XX asr boshlarigacha bu metoddan kasb-hunar maktablarida foydalanilgan xolos. Ushbu ta'limga metodini atroficha tahlil qilish quyidagi natijalarni ko'rsatadi:

1. Ushbu metod insonda ijodkorlik xislatlarini shakkantirish imkonini yaratadi;
2. Yosh avlodni mustaqil hayotga tayyorlash va ko'nikmalarni hosil qiladi;
3. O'quvchilarni mehnat faoliyatiga tayyorlashning bir shaklidir;
4. Ta'limga berishda amaliyat va nazariya uyg'unligi vositasidir;
5. Mustaqil ravishda o'z ustida ishlash orqali mavjud bilimlarni mustahkamlash va yangilarini puxtalashning asosiy negizidir;
6. O'qituvchi tomonidan maxsus ishlab chiqilgan va o'quvchi tomonidan mustaqil bajariladigan harakatlar majmuasidir;
7. Rivojlantiruvchi ta'limga muhitini tashkil etuvchi pedagogik texnologiyadir.

Rus olimlari Ingrid Bem va Yens Shnayder loyihalash faoliyatini o'quvchilarni ma'lum bir ta'limga olish davrida (o'quv yili yoki yarim yillik) bilim olish va kasbga yo'naltirish ishlarini tashkil etishning usuli deb hisoblaydilar.

Ta'limga innovatsion yondashuvlar pedagogik loyihalash jarayonida namoyon bo'ladi. Ijodkorlik va kreativlik pedagogik loyihalashning ajralmas qismidir. Didaktik, kasbiy va texnologik

## PEDAGOGIKA

ijodkorlik – bu pedagogik loyihalash sohasidagi samarali faoliyat uchun zarur bo'lgan o'qituvchining bilim, ko'nikma va malakalari yig'indisi hamda kasbiy kompetentlik darajasini aniqlovchi bosh omildir.

Bugungi kunda innovatsiya va islohotlarni ta'lif jarayonida qo'llash zamonaviylik belgisi hisoblanadi [6]. Loyihalash jarayoni innovatsion faoliyat sifatida bir qator afzalliliklarga, balki hozirgi ta'lif tizimidagi muammolarga ham egadir.

Pedagogik loyihalash faoliyatiga dars mashg'ulotlarini o'tkazish uchun materiallar, metodik qo'llanmalar, vositalar va usullarni, shuningdek, o'qituvchining ijodiy jarayoni va amalga oshiradigan faoliyatini oldindan ishlab chiqishga aytildi. Pedagogik loyihalash pedagogik faoliyatning bosqichlaridan biri bo'lib, har qanday pedagogik faoliyat oldindan ta'lif jarayoni ishtirokchilari tomonidan ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi.

Pedagogik loyihalash jarayoni pedagogik faoliyatning diagnostik, tashkiliy yoki kommunikativ funksiyalariga tayaniplib amalga oshiriladi. Pedagogik loyihalashni amalga oshirishda dastlab o'qituvchi kelajakdagi o'quv faoliyatini amalga oshirish rejasini ishlab chiqadi. Har bir o'qituvchidan pedagogik loyihani yaratish jarayonida individual, ijodiy yondashish talab etiladi. Ya'ni, loyihani yaratishga o'qituvchining o'ziga xos sub'yektiv omillariga ilhom, alohidalilik, ixtirochilik va boshqalar ta'sir qiladi. O'qitishning turli shakl va usullaridan foydalangan holda loyiha yaratishga favqulorra yondashish, shuningdek, an'anaviy va zamonaviy o'qitish texnologiyalari - oliv o'quv yurtida o'quv mashg'ulotlarini qurish jarayonida o'qituvchining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi[3].

Pedagogik loyihani ishlab chiqishda nafaqat ijodiy komponent muhim ahamiyatga ega, balki didaktika ham dolzarblik kasb etadi. Chunki zamonaviy dunyoda globallashuv va axborotning katta oqimi o'qituvchidan didaktik bilimlarga ega bo'lishni talab etadi. Axborot asrida yashayotgan talabalarga "kerakli", "muhim", "saralangan" ma'lumotlarni aniqlash kelajakdagi pedagogik loyihaga qo'yishda o'qituvchidan didaktik ijodkorlik talab etiladi. O'qituvchining didaktik ijodkorligi talabalarning qiziqishi va bilish darajasini aniqlash, o'quv materialini tanlash, tuzish jarayonida ham davom etadi.

Professional ijodkorlik pedagogik loyiha yaratish uchun muhim. Chunki o'qituvchi o'quvchilarining individual xususiyatlarini, ularning ehtiyojlari va qiziqishlarini, xulq-atvor xususiyatlarini va boshqalarni hisobga olgan holda o'quv materialini to'g'ri tanlashi kerak. Texnologik ijodkorlik esa pedagogik loyihalarni yaratish uchun zarur bo'lgan pedagogik kasbiy mahoratning tarkibiy qismlarini to'ldiradi. Texnologik ijodkorlik pedagogik loyihalashning samaradorligiga, pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirishning ancha yuqori sifatiga erishishga yordam beradi [4].

Pedagogik loyihalash darajasi bevosita o'qituvchining texnologik kompetensiyasiga bog'liq bo'lib, u quyidagi mezonlar bo'yicha baholanadi.

- Maqsadga muvofiglik (orientasiya);
- Ijodkorlik (faoliyat mazmuni);
- Ishlab chiqarish qobiliyati (pedagogik texnologiya darajasi);
- Optimallik (samarali vositalarni tanlash);
- Natijadorlik [5].

## XULOSA

Yoshlarni tarbiyalash va ularga zamonaviy bilimlar berishning sifatini oshirish orqali jamiyatimiz uchun barkamol shaxsn shakkantirish ta'lif tizimining eng asosiy maqsadlaridan hisoblanadi. Uzluksiz ta'lif jarayonida olib borilayotgan barcha harakatlar shu maqsadni amalga oshirishda muhimdir. Hozirgi vaqtida barcha fanlarni innovatsion texnologiyalar asosida o'qitishning maqbul yo'llari tadqiq qilinmoqda [7].

Yuqoridagilardan xulosa qilishimiz mumkinki, pedagogik loyihalash o'qituvchining ko'r komponentli murakkab faoliyati bo'lib, uning malakasi, kasbiyligi va texnologik samaradorligiga bog'liq. Zamonaviy ta'lif muassasalarida barcha sohalarda bo'lgani kabi sifat masalasi birinchi o'ringa ko'tarilmoxda. Abituriyentlarni oliv ta'limga jalb etish maqsadidagi kurash muassasalar o'rtasida ta'lif sifatiga katta e'tibor talab qilmoqda. Professional ta'lif muassasalarida o'qitishning zamonaviy usullarini qo'llash, yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish dars samaradorligini oshiradi

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

- [1]. Захарова Е.Я. Трудности внедрения новых информационных технологий // Качество образования. Проблемы оценки. Управление. Опыт: Репортерские Ново-сибирск. Изд-во НГТУ, 1999. с. 47-51 (Zaharova E.Y "Difficulties of harming new information technologies" The quality of education. Evaluation problems. Management, 1999.y 47-51p)

[2]. Быстрова Н.В., Хижная А.В., Чумакова Л.А., Коротеева О.Д. "Педагогические основы формирования познавательных интересов школьников"//Проблемы современного педагогического образования. 2017. №57-12. С. 58-64. ( Bistrova N.V, Xijnaya A.V, Chumakova L.A Koroteeva O.D " Pedagogical basic formation of cognitive interests of schoolchildren" Problems of modern teacher education 2017y. №57-12. . 58-64 p)

[3]. Филатова О.Н., Быстрова Н.В., Васильева Н.В., Дюжакова Д.А. "Роль педагога профессионального обучения в реализации профессиональных стандартов"// Проблемы современного педагогического образования. 2017. №57-7. С. 222-228 ( Filatova O.N, Bistrova N.V, Vasileva N.V, Duyjakova D.A "The role of the teacher of vocational training in the implementation of professional standards" Problems of modern teacher education 2017 y №57-7. 222-228 p)

[4]. I.K. Abdirimova. "Loyihalash faoliyatining bosqichlari, loyiha yondashuv mohiyati va maqsadlar uyg'unligi" Ilm fan va ta'lif jurnali 2020 18-26 b ( I.K. Abdirimova " Stages of design activities, the gist of the approach to the project and the harmony of goals" Science and Education" Scientific Journal September 2020 / Volume 1 Special Issue 2. 18-26 p)

[5]. Shafqorov, A. M., Xodjamqulov, U. N. "Pedagogik ta'lif klasteri tamoyillari" Filologiyaning dolzARB muammolari, 2019-y. (2), 71-74 b. ( Shafqorov, A.M., Xodjamqulov, U.N "Principles of pedagogical education cluster" Current problems of philology 2019y. (2), 71-74 p)

[6]. M. Quronov "Uzluksiz ta'lif jarayonida barkamol shaxsni tarbiyalash tizimi" Risola-Toshkent: 2005. (M.Kuronov. "System of educating a well-rounded person in the process of continuous education" pamphlet-Tashkent:2005)

[7].Qorayev S.B. "Pedagogika" O'quv qo'llanma. Toshkent: "Zebo-Print" 023-y 63-b (Qorayev.S.B. "Pedagogy" Tutorial book. Tashkent "Zebo-Print" 2023y 63p)